



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 1 - mart

VI-59-42-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi tarkibida Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasini tuzish, Nizomi va tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagи “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PF-5729-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 19 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi Nizomi 1-ilovaga muvofiq;
- Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov

Xalq deputatlari Angor tuman
 Kengashining
 2023 yil 1 martdagি
 VI-59-42-8-109-K/23-son
 qaroriga
 1-ilova

Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi

NIZOMI

I bob. Umumiy qoidalar

1. Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi tarkibida Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyat yo‘nalishida jamoatchilik asosida ish olib boradi. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalarini va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

2. Komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga hamda ushbu nizomga va boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitasi, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi tarkibida Surxondaryo viloyati korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi qarorlariga amal qiladi.

3. Komissiya o‘z faoliyatini joylardagi davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II bob. Komissyaning asosiy vazifalari

4. Komissyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- hududda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o‘rganish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat va boshqa dasturlarning amalga oshirilishini tashkil etish;

- tegishli hududda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

- korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning birgalikdagi samarali faoliyatini ta’minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- yoshlarda korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetni mustahkamlash maqsadida maktablar, kasb-hunar maktablarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga doir tadbirlar tashkil etish;
- tumanda “Korrupsiyasiz soha” dasturini muntazam tarzda targ‘ib qilish va uni nazorat qilib borish;
- hududda davlat xaridlaridan barcha xabardor bo‘lishi mumkin bo‘lgan ochiq va shaffof tizimini kuzatib borish;
- hududda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda «Korrupsiyaga qarshi ekspertiza» o‘tkazish tizimini uni nazorat qilib borish;
- hududda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“kompleks nazorat”) hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini joriy etish ishlari bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash;
- hududda davlat xizmatiga halollik standarti va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish me’yorlarini joriy etishda ko‘maklashish;
- hududda korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan takliflar berish;
- hududda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish;
- korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning oldini olish, ularna aniqlash, chek qo‘yish, oqibatlari hamda imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta’minlash;
- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to‘g‘risidagi axborotni olish hamda tahlil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash uchun tegishli hududda qilingan ishlar haqida viloyat komissiyaga axborot taqdim etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.

III bob. Komissiyaning huquq va majburiyatlari

5. Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli hududda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining hududiy tuzilmalari, mahalliy davlat hokimiyati organi, boshqa davlat organlari, fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari va fuqarolardan komissiya vakolatiga taalluqli bo‘lgan axborotni belgilangan tartibda so‘rash va olish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini va ma’ruzalarini eshitish;
- Komissiya faoliyatining muhim masalalari yuzasidan o‘rganishlar o‘tkazish va takliflar tayyorlash uchun ishchi komissiyalar va (yoki) ekspert guruhlari tuzish, shuningdek ushbu komissiyalar va guruhlar ishiga mutaxassislarni jalgan etish;
- Komissiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi ham mumkin.

6. Komissiya quyidagilarga majbur:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalarining korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha qarorlarini ijro etish;
- joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqishda va uni amalga oshirilishida ishtirok etish;
- Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarning o‘z vaqtida ijro etilishi yuzasidan nazoratni va monitoringni amalga oshirish;
- viloyat komissiyaga har chorakda Komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berish.

Komissiyaning zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

IV bob. Komissiya ishini tashkil etish

7. Komissiya tarkibi joylardagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy kengash deputatlari, nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan shakllantiriladi hamda uning shaxsiy tarkibi xalq deputatlari tuman Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

8. Komissiya raisi va o‘rinbosarlari uning a’zolari orasidan ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

9. Komissiya o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida doimiy olib boradi va o‘z majlislarini zaruratga qarab, ammo yilning har choragida kamida bir marta o‘tkazadi.

Komissiyaning majlislari, agar ularda tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan bo‘lsa, vakolatli deb hisoblanadi. Qarorlar komissiya majlisida ishtirok etgan a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Komissiya qarorlari komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan va kotib tomonidan imzolanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomaga komissiya a’zolari alohida fikr bildirish va uni yozma tarzda bayon etish huquqiga ega.

10. Komissiyaning majlislariga davlat organlari va boshqa tashkilotlar vakillarini taklif etish mumkin. Komissiya majlislarida viloyat komissiya a’zolari, shuningdek, Respublika komissiya ishchi organi vakillari ishtirok etishi mumkin.

11. Komissiya raisi:

- Komissiya faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Komissiya majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi;
- Komissiya majlislari kun tartibini tasdiqlaydi;
- Komissiya ish rejalarini tasdiqlaydi;
- Komissiya raisi o‘z o‘rnida bo‘lmaganida uning vazifasini Komissiyaraaisining o‘rinbosari amalga oshiradi.

12. Komissiyaning ishchi organi funksiyasini tegishinchcha xalq deputatlari Kengashi bajaradi.

Ishchi organ quyidagilarni amalga oshiradi:

- Komissiya faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan ta’minlash;
- Komissiyaning har yarim yillik ish rejasini ishlab chiqish, uning ijrosini nazorat qilish, shuningdek komissiyaning kundalik faoliyatini tasdiqlangan rejaga muvofiq tashkil qilish;
- vazirlik, davlat qo‘mitalari va idoralarning hududiy tuzilmalari, mahalliy davlat

hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda Davlat dasturining ijrosi yuzasidan monitoringni amalga oshirish va nazorat qilish;

- kelib tushayotgan xat va hujjatlarni ko‘rib chiqish va Komissiya vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan qarorlar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashishi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, bu boradagi faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

Ishchi organ qonun hujjatlari muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

13. Komissiya kotibi:

Komissiya majlislari kun tartibi masalalari bo‘yicha o‘tkazilishini tashkil etadi;

Barcha zarur hujjatlar navbatdagi majlisga to‘planishi, umumlashtirilishi va Komisiya raisiga taqdim etilishini ta’minlaydi;

Komisiya raisi bilan majlisning muddati va joyini hamda taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini kelishadi;

Komissiya a’zolari va taklif etilgan shaxslarga majlis o‘tkaziladigan sana, vaqtin, joyi to‘g‘risida xabar beradi.

Komissiya qarorlari bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalarini Komissiya majlisida ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi;

Komissiya majlislari bayonnomalarni rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni manfaatdor idoralarga yuboradi.

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2023 yil 1 martdag'i
VI-59-42-8-109-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Angor tumani korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi
T A R K I B I

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1.	Lavozimiga ko'ra	xalq deputatlari Angor tuman Kengashi raisi, <i>Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi raisi</i>
2.	Bo'tayev Suyun Bobonorovich	Angor tuman jinoyat sudi raisi
3.	Ramazonov Sirojiddin Nasullayevich	Angor tuman prokurori
4.	Saydullayev Ruslan Toshtemirovich	Davlat xavfsizlik xizmatining tuman bo'limi boshlig'i
5.	G'afforov O'tkir Ergashevich	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Angor tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri
6.	Kuchkarov Sanjar Baxtiyorovich	Angor tuman Moliya bo'limi boshlig'i
7.	Tilovqobilov G'ayrat Jaylovovich	Angor tuman Adliya bo'limi boshlig'i
8.	Choriyev Sodiq Baxrom o'g'li	Angor tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
9.	Ro'ziyev Erkin Irgashevich	Tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori
10.	Mamadiyarov Nomoz To'xtamishovich	Angor tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri
11.	Bobomuratova Gulchehra Shoxdarovna	Angor tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri
12.	Odinayev Sherzod Bekmirzaevich	Angor tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
13.	Mirzayev Sherali Ismatovich	Angor tuman Mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i
14.	Sharipov Nusrat Temirovich	Angor tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i
15.	Xudoyorov Alisher Tilovmurodovich	Angor tuman Statistika bo'limi boshlig'i
16.	Shanayev Davron Xasanovich	Yoshlar ishlari agentligi Angor tuman bo'limi boshlig'i

17.	Lavozimiga ko‘ra	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Angor tuman bo‘limi boshlig‘i
18.	Gulmurodov Erkin Choriyevich	Angor tuman Bosh imom xatibi
19.	Hamrayev Kamol Safar o‘g‘li	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Angor tuman bo‘linmasi rahbari
20.	Jumayeva Gavhar Toshtemirovna	Angor tuman “Angor yog‘dusi” gazetasi bosh muharriri
21.	Baxromov Isoxon Nosirovich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
22.	Xo‘janova Dilafruz Allamurodovna	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
23.	Xalimov Yusuf Davronovich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
24.	Sadatov Mustafo Mengliyevich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
25.	Xolmurodov Xayrulla Shopo‘latovich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
26.	Ergashev Qahramon Jaxonovich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
27.	Mamatmurodov Toshkentboy Choriyevich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi deputati
28.	Yarmatov Muxiddin Nurxonovich	Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi kotibiyati mudiri, <i>Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashi kotibi</i>

Izoh: Hududiy kengash a’zolari boshqa lavozimga o’tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.